



O'ZBEKISTONDA TA'LIM TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH (TURKIYA MISOLIDA)

Jahongirov Kamoliddin

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

ORCID: 0000-0002-1128-6986

kamoliddin6564@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda ta'lim turizmini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari Turkiya tajribasi asosida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ta'lim turizmining xalqaro iqtisodiyotdagi o'рни, xorijiy talabalarni jalb qilish mexanizmlari, davlat siyosati va universitetlarning xalqaro raqobatbardoshligi o'rganildi. Shuningdek, Turkiyaning "Türkiye Scholarships", "Study in Türkiye" kabi strategik dasturlari hamda xalqaro marketing tajribasi tahlil qilinib, O'zbekiston uchun moslashtirilishi mumkin bo'lgan jihatlari aniqlab berildi. Tadqiqotda SWOT tahlil, qiyosiy va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijada O'zbekistonda ta'lim turizmini rivojlantirish, xalqaro talabalar oqimini oshirish va ta'lim xizmatlari eksportini kengaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: ta'lim turizmi, xalqaro talabalar, Turkiya tajribasi, ta'lim eksporti, akademik mobillik, oliy ta'lim, xalqaro marketing, SWOT tahlil, ta'lim xizmatlari, edu-tourism.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В РАЗВИТИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ (НА ПРИМЕРЕ ТУРЦИИ)

Джахангиров Камолитдин

Международной академии исламоведения Узбекистана

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретические и практические аспекты развития образовательного туризма в Узбекистане на основе опыта Турции. В ходе исследования изучены роль образовательного туризма в мировой экономике, механизмы привлечения иностранных студентов, государственная политика и международная конкурентоспособность университетов. Особое внимание уделено анализу стратегических программ Турции, таких как "Türkiye Scholarships" и "Study in Türkiye", а также возможностям их адаптации в условиях Узбекистана. В исследовании использованы методы SWOT-анализа, сравнительного и статистического анализа. В результате разработаны научно-практические предложения по развитию образовательного туризма, увеличению потока иностранных студентов и расширению экспорта образовательных услуг в Узбекистане.

Ключевые слова: образовательный туризм, иностранные студенты, опыт Турции, экспорт образования, академическая мобильность, высшее образование, международный маркетинг, SWOT-анализ, образовательные услуги, edu-tourism.

USING FOREIGN EXPERIENCE IN DEVELOPING EDUCATIONAL TOURISM IN UZBEKISTAN (THE EXAMPLE OF TURKEY)

Jahongirov Kamoliddin

International Islamic Academy of Uzbekistan

Abstract. *This article analyzes the theoretical and practical aspects of developing educational tourism in Uzbekistan based on the experience of Türkiye. The study examines the role of educational tourism in the global economy, mechanisms for attracting international students, state policy, and the international competitiveness of universities. Particular attention is paid to Türkiye's strategic programs such as "Türkiye Scholarships" and "Study in Türkiye," as well as the possibilities of adapting these practices to Uzbekistan's conditions. The research applies SWOT analysis, comparative analysis, and statistical methods. As a result, scientific and practical recommendations were developed to improve educational tourism, increase the flow of international students, and expand the export of educational services in Uzbekistan.*

Keywords: *educational tourism, international students, Türkiye experience, education export, academic mobility, higher education, international marketing, SWOT analysis, educational services, edu-tourism.*

Kirish.

So'nggi yillarda jahon miqyosida ta'lim turizmi nafaqat ta'lim tizimining xalqaro integratsiyasini kuchaytiruvchi omil, balki mamlakat iqtisodiyotining eksport salohiyatini oshiruvchi strategik yo'nalish sifatida ham shakllanmoqda. Globallashuv, akademik mobillikning kengayishi, xalqaro universitetlar reytingining ahamiyati ortishi hamda xorijiy talabalar oqimining keskin ko'payishi natijasida ta'lim turizmi bugungi kunda xizmatlar eksportining eng tez rivojlanayotgan segmentlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar uchun xorijiy talabalarni jalb qilish orqali valyuta tushumlarini oshirish, ilmiy salohiyatni kuchaytirish, innovatsion muhitni rivojlantirish va mamlakatning xalqaro imijini mustahkamlash imkoniyati yuzaga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, xorijiy talabalar sonini ko'paytirish va ta'lim xizmatlari eksportini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mamlakatda xorijiy OTM filiallari ochilishi, xalqaro qo'shma dasturlar sonining ortishi, akademik almashinuv loyihalarining kengayishi hamda ta'lim infratuzilmasining modernizatsiya qilinishi ta'lim turizmini rivojlantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq mazkur yo'nalishda xalqaro tajribani chuqur o'rganish va amaliy jihatdan moslashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Bu borada Turkiya tajribasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki Turkiya qisqa vaqt ichida xalqaro talabalarni jalb qilish bo'yicha dunyodagi yetakchi davlatlardan biriga aylandi. 2025-yilda Turkiyada tahsil olayotgan xorijiy talabalar soni 340 ming nafarga yetgani hamda mamlakat 200 dan ortiq davlatlardan kelgan talabalarni qabul qilayotgani qayd etilgan. Shuningdek, Turkiya 2028-yilgacha xorijiy talabalar sonini 500 ming nafarga yetkazishni maqsad qilgan¹. Ushbu ko'rsatkichlar mamlakatda ta'lim turizmi strategik darajada rivojlantirilayotganini hamda uning iqtisodiy va geosiyosiy ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi.

Turkiyaning "Türkiye Scholarships" dasturi, xalqaro universitetlar tarmog'i, nisbatan arzon va sifatli ta'lim tizimi, madaniy yaqinlik hamda qulay geografik joylashuvi ushbu davlatning ta'lim turizmidagi raqobatbardoshligini oshirmoqda. Ayniqsa, turkiy davlatlar, Markaziy Osiyo mamlakatlari va musulmon davlatlaridan talabalarni faol jalb etish siyosati O'zbekiston uchun ham muhim tajriba hisoblanadi.

¹ <https://www.aa.com.tr/en/turkiye/number-of-foreign-university-students-in-turkiye-to-reach-500-000-by-2028/3560284>

Adabiyotlar sharhi.

Ta'lim turizmi va xalqaro talabalar mobilligi masalalari so'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilmoqda. Ayniqsa, xalqaro ta'lim xizmatlari eksporti, xorijiy talabalarni jalb qilish omillari, universitetlarning xalqaro raqobatbardoshligi hamda ta'lim turizmining iqtisodiy samaradorligi bo'yicha olib borilgan izlanishlar ushbu yo'nalishning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xorijiy olimlardan Oya Tamtekin Aydın (2021) Turkiyada xalqaro talabalar oqimining o'sish sabablarini tadqiq qilgan. Olimning fikricha, Turkiyaning geografik qulayligi, musulmon davlatlari bilan madaniy yaqinligi, nisbatan arzon kontrakt narxlar hamda davlat stipendiya dasturlari xorijiy talabalarni jalb qiluvchi asosiy "pull factors" hisoblanadi. Tadqiqotda, ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlari talabalari uchun Turkiya ta'lim tizimi jozibador yo'nalish sifatida shakllanayotgani qayd etilgan.

Burçin Kırklar-Can (2019) esa turizm ta'limining falsafiy va institutsional asoslarini o'rganib, Turkiyada turizm ta'limining xalqaro mehnat bozori talablariga mos ravishda transformatsiyalanayotganini ta'kidlaydi. Muallif turizm ta'limi nafaqat xizmat ko'rsatish sohasi uchun kadr tayyorlash, balki mamlakatning "soft power" siyosatini kuchaytiruvchi vosita ekanligini asoslab beradi.

Ali Selman Özdemir va hammualliflar (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Istanbul shahridagi xalqaro talabalar ijtimoiy moslashuvi, rekreatsion faoliyati hamda ijtimoiy integratsiya darajasi o'rganilgan. Tadqiqot natijalari xalqaro talabalar uchun qulay ijtimoiy va madaniy muhit yaratish ta'lim turizmining barqaror rivojlanishida muhim omil ekanligini ko'rsatgan.

Hakan Binbaşoğlu (2019) turizm va mehmondo'stlik yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarining xalqaro qarashlari va xorijiy madaniyatlarga ochiqlik darajasini tadqiq qilgan. Olimning fikricha, xorijiy tillarni chuqur o'rganish hamda xalqaro kommunikatsiya kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim turizmining muvaffaqiyatli rivojlanishida muhim determinantlardan biri hisoblanadi.

Oya Tamtekin Aydın (2021) tomonidan yana bir tadqiqotda mahalliy va xorijiy talabalar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar tahlil qilinib, Turkiyada xalqaro talabalar integratsiyasining nisbatan yuqori darajada ekanligi aniqlangan. Muallif til muammolari va madaniy moslashuv omillariga alohida e'tibor qaratadi.

Mahalliy olimlardan Ayupov (2020) raqamli iqtisodiyot va ta'lim xizmatlari integratsiyasi masalalarini tadqiq qilib, O'zbekistonda xalqaro ta'lim xizmatlari eksportini rivojlantirish uchun raqamli platformalar va xalqaro akademik marketing mexanizmlarini joriy etish zarurligini ta'kidlaydi. Olim ta'lim eksporti mamlakatning intellektual kapitalini oshiruvchi strategik omil ekanligini qayd etadi.

Abduraxmonov (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda inson kapitali, ta'lim sifati va xalqaro mehnat bozori o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan. Muallifning fikricha, xorijiy talabalarni jalb qilish orqali mamlakatda innovatsion muhit va yuqori malakali kadrlar salohiyati rivojlanadi.

Shuningdek, G'ulomov (2022) ilmiy ishlarida raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimini xalqaro integratsiyalashuv jarayonlari o'rganilgan bo'lib, unda universitetlarning global reytingdagi o'rni va akademik mobillik ko'rsatkichlari ta'lim turizmini rivojlantirishning asosiy indikatorlari sifatida talqin etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda ta'lim turizmini rivojlantirish imkoniyatlarini baholash hamda Turkiya tajribasining samarali jihatlarini aniqlash maqsadida kompleks ilmiy metodlardan foydalaniladi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil usuli orqali O'zbekiston va Turkiyaning ta'lim turizmi ko'rsatkichlari, xorijiy talabalarni jalb qilish mexanizmlari, davlat siyosati va universitetlar infratuzilmasi o'zaro taqqoslanadi. Statistik tahlil yordamida xalqaro

talabalar soni, ta'lim xizmatlari eksporti va akademik mobillik ko'rsatkichlari o'rganiladi. Shuningdek, ilmiy abstraksiya, tizimli yondashuv hamda induksiya-deduksiya metodlari asosida ta'lim turizmining iqtisodiy va institutsional omillari tahlil qilinadi.

Tadqiqotda SWOT tahlil metodidan ham foydalanilib, O'zbekistonda ta'lim turizmini rivojlantirishning kuchli jihatlari (strategik geografik joylashuv, yoshlar ulushining yuqoriligi, xalqaro hamkorlikning kengayishi), zaif tomonlari (xalqaro reytingdagi universitetlar sonining kamligi, marketing mexanizmlarining sustligi), imkoniyatlari (Markaziy Osiyo ta'lim markaziga aylanish salohiyati, raqamli ta'lim platformalarining rivojlanishi) hamda xavf-xatarlari (xalqaro raqobatning kuchayishi, kadrlar migratsiyasi) aniqlab beriladi.

Mazkur metodlar asosida O'zbekistonda ta'lim turizmini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, Turkiya tajribasining moslashtirilishi mumkin bo'lgan jihatlari hamda ta'lim xizmatlari eksportini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jahon miqyosida ta'lim turizmi global xizmatlar bozorining eng tez rivojlanayotgan segmentlaridan biriga aylanmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, akademik mobillikning kuchayishi, xalqaro universitetlar o'rtasidagi raqobatning ortishi hamda davlatlarning "soft power" siyosatida ta'lim omilining strategik vositaga aylanishi natijasida xorijiy talabalarni jalb qilish masalasi ko'plab mamlakatlarning ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bugungi kunda xalqaro talabalar oqimi nafaqat ta'lim tizimi rivojlanishining, balki mamlakatning investitsion jozibadorligi, innovatsion muhiti va xalqaro imijining muhim indikator sifatida baholanmoqda.

Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, 2030-yilga borib dunyo bo'yicha xorijda ta'lim olayotgan talabalar soni 10–20 million nafargacha yetishi prognoz qilinmoqda. Turkiyaning Xorijdagi turklar va qardosh jamiyatlar boshqarmasi (YTB) ma'lumotlariga ko'ra, 1975-yilda xorijda tahsil olayotgan talabalar soni atigi 800 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich 7,5 million nafardan oshgan[10]. Bu esa ta'lim turizmi global iqtisodiyotning strategik yo'nalishiga aylanganini ko'rsatadi.

Ayniqsa, Turkiya so'nggi o'n yillikda ta'lim turizmini rivojlantirish bo'yicha eng tez o'sayotgan davlatlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Mamlakat oliy ta'lim tizimining xalqaro integratsiyasini kuchaytirish, xorijiy talabalarni faol jalb qilish hamda universitetlarni global reytinglarga olib chiqish bo'yicha kompleks siyosat yuritmoqda. Turkiya Oliy ta'lim kengashi (YÖK) ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda tahsil olayotgan xorijiy talabalar soni 2025-yilda 340 ming nafarga yetgan va 2028-yilgacha ushbu ko'rsatkichni 500 ming nafarga yetkazish maqsad qilib qo'yilgan. Mazkur natijalar Turkiyaning qisqa muddat ichida xalqaro ta'lim markazlaridan biriga aylanganini ko'rsatadi.

Turkiyada ta'lim turizmining rivojlanishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Birinchidan, mamlakat geografik jihatdan Yevropa va Osiyo chorrahasida joylashgan bo'lib, bu xalqaro talabalar uchun logistika va madaniy moslashuv jihatidan qulaylik yaratadi. Ikkinchidan, "Türkiye Scholarships" kabi davlat stipendiya dasturlari orqali yuzlab mamlakatlardan talabalar jalb qilinmoqda. Uchinchidan, ingliz tilidagi ta'lim dasturlarining ko'payishi hamda xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan universitetlar sonining ortishi Turkiyaning raqobatbardoshligini kuchaytirmoqda. Jumladan, [Koç University](#), [Middle East Technical University \(METU\)](#) va [Sabanci University](#) kabi universitetlarning xalqaro reytinglardagi o'rni xorijiy talabalar oqimini oshirishda muhim rol o'ynamoqda².

OECD'ning "Education at a Glance 2025" hisobotida qayd etilishicha, Turkiyada xalqaro talabalar ulushi 2013–2023-yillar oralig'ida 1,7 foizdan 4,3 foizgacha oshgan. Bu esa mamlakatning qisqa vaqt ichida xalqaro oliy ta'lim bozorida sezilarli natijalarga erishganini

² <https://uluslararası.yok.gov.tr/en/news-detail/39>

ko'rsatadi. Bundan tashqari, Turkiyada universitetlarning birinchi kursni tark etish darajasi OECD davlatlari orasida eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lib, 1 foizni tashkil qilishi ham ta'lim sifati va talabalar uchun yaratilgan qo'llab-quvvatlash tizimining samaradorligini ko'rsatadi³.

Biroq jahon miqyosida ta'lim turizmi sohasida raqobat tobora kuchayib bormoqda. Xususan, AQSH va Buyuk Britaniya kabi an'anaviy ta'lim markazlarida migratsion siyosatning qat'iylashuvi xalqaro talabalar oqimiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. 2025-yilda AQSH universitetlarida yangi xalqaro talabalar qabuli 17 foizga kamaygani qayd etilgan. Buyuk Britaniyada esa talabalar vizasi bo'yicha cheklovlarning kuchayishi xalqaro talabalar sonining pasayishiga olib kelgan. Ushbu holat Turkiya, Malayziya, BAA va Markaziy Osiyo davlatlari kabi yangi rivojlanayotgan ta'lim markazlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratmoqda.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro integratsiyani kuchaytirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari sonining ortishi, xorijiy universitetlar filiallarining ochilishi, kredit-modul tizimining joriy etilishi hamda akademik mobillik dasturlarining kengayishi mamlakatning ta'lim turizmi salohiyatini oshirmoqda. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni 2015/2016-o'quv yilidagi 264,3 ming nafardan 2024/2025-o'quv yilida 1,43 million nafarga yetgan. Bu esa oliy ta'lim qamrovining qariyb 5,4 barobarga oshganini anglatadi.

Shuningdek, xorijiy talabalarni jalb qilish borasida ham ijobiy dinamika kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024/2025-o'quv yilida mamlakatdagi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan xorijiy talabalar soni 12,5 ming nafarga yetgan bo'lib, bu ko'rsatkich so'nggi 10 yil ichida qariyb 18 barobarga oshgan. Bundan tashqari, 2025-yilning yanvar-oktabr oylarida ta'lim maqsadida O'zbekistonga kelgan xorijiy fuqarolar soni 33,2 ming nafardan oshib, o'tgan yilga nisbatan 51,5 foizga ko'paygani qayd etilgan⁴. Ushbu holat mamlakatning ta'lim turizmi bozorida asta-sekin shakllanayotganini ko'rsatadi.

Bugungi kunda [Westminster International University in Tashkent](#), [TEAM University, Turin Polytechnic University in Tashkent](#) hamda [MDIS Tashkent](#) kabi xalqaro universitetlar va filiallarning faoliyati O'zbekistonning xalqaro ta'lim makonidagi mavqeini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, tibbiyot va IT yo'nalishlarida Hindiston, Pokiston, Afg'oniston va qo'shni davlatlardan talabalar oqimining ortishi kuzatilmoqda.

Shunga qaramasdan, O'zbekistonda ta'lim turizmini rivojlantirish bo'yicha qator tizimli muammolar ham mavjud. Jumladan, xalqaro reytingdagi universitetlar sonining kamligi, ingliz tilidagi dasturlar ulushining yetarli emasligi, xalqaro marketing mexanizmlarining sustligi hamda universitet infratuzilmasining ayrim jihatlari hali ham xalqaro standartlarga to'liq mos emas. Bundan tashqari, xorijiy talabalar uchun "student experience" tizimi, akademik servislar va integratsion muhit yetarli darajada shakllanmagan.

Mazkur jihatlar Turkiya tajribasini O'zbekiston sharoitida chuqur o'rganish zaruratini yanada kuchaytiradi. Chunki Turkiya qisqa vaqt ichida ta'lim turizmini iqtisodiy, madaniy va geosiyosiy instrumentga aylantira oldi. O'zbekiston ham o'zining geografik joylashuvi, yoshlar ulushi, tarixiy-madaniy salohiyati va Markaziy Osiyodagi strategik o'rnidan samarali foydalanish orqali mintaqaviy ta'lim markaziga aylanish imkoniyatiga ega.

Turkiya so'nggi yillarda ta'lim turizmini rivojlantirishni davlat siyosatining strategik yo'nalishlaridan biriga aylantirdi. Mamlakatda xorijiy talabalarni jalb qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar oliy ta'limning xalqaro integratsiyasini kuchaytirish, ta'lim xizmatlari eksportini oshirish hamda mamlakatning xalqaro nufuzini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, "Turkiye Scholarships" davlat stipendiya dasturi, ingliz tilidagi ta'lim dasturlarining kengayishi, xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan universitetlar sonining ortishi hamda "Study in

³ <https://kun.uz/en/97387923>

⁴ <https://www.dailysabah.com/turkiye/turkiye-ranks-among-top-10-countries-for-intl-students/news>

Türkiye” xalqaro marketing platformasining faol targ’iboti Turkiyaning xalqaro ta’lim bozoridagi ulushini sezilarli darajada oshirdi.

Turkiya tajribasining muhim jihatlaridan biri shundaki, mamlakat ta’lim turizmini faqat iqtisodiy foyda manbai sifatida emas, balki geosiyosiy va madaniy diplomatiya instrumenti sifatida ham rivojlantirmoqda. Xususan, Markaziy Osiyo, Afrika, Yaqin Sharq va Bolqon mamlakatlaridan talabalarni jalb qilish orqali uzoq muddatli ilmiy, iqtisodiy va siyosiy aloqalarni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko’ra, Turkiyaning global xalqaro talabalar mobilligidagi ulushi 2020-yildagi 2,9 foizdan 2024-yilda 3,5 foizga yetgan. 2024/2025-o’quv yilida esa mamlakatda tahsil olayotgan xorijiy talabalar soni 337 ming nafardan oshgan⁵.

1-jadval

Turkiyada ta’lim turizmining rivojlanish ko’rsatkichlari va xorijiy talabalarni jalb qilish omillari (2022–2025 yy.)

Yil	Xorijiy talabalar soni	Global mobillikdagi ulushi	Asosiy kelayotgan davlatlar	Talabalarni jalb qiluvchi asosiy omillar
2022	300 ming nafar	2,9 %	Suriya, Ozarbayjon, Turkmaniston, Eron, Iroq	Madaniy va diniy yaqinlik, arzon kontrakt, stipendiyalar
2023	320 ming nafar	3,1 %	O’zbekiston, Qozog’iston, Somali, Afg’oniston, Pokiston	Ingliz tilidagi dasturlar, xavfsiz muhit, xalqaro diplom tan olinishi
2024	337 119 nafar	3,5 %	Turkmaniston, Suriya, Ozarbayjon, O’zbekiston, Nigeriya	“Türkiye Scholarships”, nisbatan past yashash xarajatlari, sifatli ta’lim
2025	340 ming nafar	3,5 %	Markaziy Osiyo davlatlari, Afrika mamlakatlari, Yaqin Sharq davlatlari	Xalqaro marketing (“Study in Türkiye”), akademik mobillik, strategik geografik joylashuv

Manba: <https://istatistik.yok.gov.tr/>

Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko’rsatadiki, Turkiyada ta’lim turizmi barqaror o’sish tendensiyasiga ega bo’lib, ayniqsa 2022–2025-yillar oralig’ida xorijiy talabalar soni keskin ortgan. Bunda asosiy o’sish Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Afrika davlatlari hisobiga ta’minlangan. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, talabalar Turkiyani tanlashda bir necha omillarga alohida e’tibor qaratmoqda.

Birinchidan, kontrakt va yashash xarajatlarining Yevropa davlatlariga nisbatan ancha arzonligi Turkiyaning raqobatbardoshligini oshirmoqda. Ikkinchidan, madaniy va diniy yaqinlik, ayniqsa musulmon mamlakatlari talabalari uchun muhim determinant sifatida namoyon bo’lmoqda. Uchinchidan, Turkiya universitetlarining xalqaro reytinglardagi mavqei va diplomlarning xalqaro tan olinishi talabalar oqimini oshirmoqda. To’rtinchidan, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan “Türkiye Scholarships” dasturi xorijiy talabalarni jalb qilishning eng samarali mexanizmlaridan biri bo’lib xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, Turkiya ta’lim turizmini rivojlantirishda uch asosiy strategik modeldan foydalanmoqda: birinchisi - davlat tomonidan qo’llab-quvvatlanadigan xalqaro stipendiya siyosati; ikkinchisi - universitetlarning global marketing va branding tizimi; uchinchi esa ta’lim, turizm va madaniy diplomatiya integratsiyasiga asoslangan kompleks yondashuvdir. Aynan ushbu jihatlar O’zbekiston uchun ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki O’zbekiston ham Markaziy Osiyodagi geografik joylashuvi, tarixiy-madaniy salohiyati va yoshlar ulushining yuqoriligi orqali mintaqaviy ta’lim markaziga aylanish imkoniyatiga ega.

⁵ <https://istatistik.yok.gov.tr/>

Ta'lim turizmini rivojlantirish bo'yicha Turkiya va O'zbekiston tajribasi o'rtasida sezilarli farqlar mavjud bo'lib, ushbu tafovutlar asosan davlat siyosati, xalqaro marketing, universitetlarning global integratsiyasi hamda xorijiy talabalar uchun yaratilgan infratuzilmaviy sharoitlarda namoyon bo'ladi. Turkiya ta'lim turizmini strategik eksport sohasi sifatida shakllantirishga erishgan bo'lsa, O'zbekistonda mazkur yo'nalish hali rivojlanish bosqichida hisoblanadi. Shu bilan birga, O'zbekistonning geografik joylashuvi, yoshlar salohiyati va xalqaro ta'lim bozoriga integratsiyalashuv jarayonlari mamlakatda ta'lim turizmini jadal rivojlantirish imkoniyatini yaratmoqda.

2-jadval

Turkiya va O'zbekiston ta'lim turizmi tizimining solishtirma tahlili

Tahlil mezonlari	Turkiya tajribasi	O'zbekiston holati
Ta'lim turizmi strategiyasi	Davlat darajasida strategik eksport sohasi sifatida rivojlantiriladi	Asosan oliy ta'lim islohotlari tarkibida shakllanmoqda
Xorijiy talabalar soni	340 ming nafardan ortiq	12-13 ming nafar atrofida
Global ta'lim bozorida mavqe	Dunyoning TOP-10 xalqaro talabalar qabul qiluvchi davlatlaridan biri	Mintaqaviy rivojlanayotgan ta'lim bozori
Xalqaro marketing tizimi	"Study in Türkiye" platformasi va global targ'ibot tizimi mavjud	Yagona xalqaro marketing platformasi yetarlicha shakllanmagan
Davlat stipendiya dasturlari	"Türkiye Scholarships" xalqaro miqyosda faol ishlaydi	Davlat grantlari asosan ichki tizimga yo'naltirilgan
Ingliz tilidagi dasturlar ulushi	Yuqori	Nisbatan cheklangan
Universitetlarning xalqaro reytingdagi o'rni	Ko'plab universitetlar QS va THE reytinglarida mavjud	Reytingdagi universitetlar soni kam
Madaniy diplomatiya	Ta'lim orqali geosiyosiy ta'sir kuchaytiriladi	Endigina shakllanmoqda
Talabalar uchun infratuzilma	Zamonaviy kampuslar, xalqaro talabalar ofislari rivojlangan	Ayrim OTMlarda shakllanmoqda
Asosiy maqsadli hududlar	Afrika, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Bolqon davlatlari	Markaziy Osiyo va qo'shni davlatlar
Ta'lim va turizm integratsiyasi	Kuchli integratsiyalashgan	Fragmentar xarakterga ega
Xalqaro akademik mobillik	Juda faol	O'sish bosqichida
Ta'lim eksportining iqtisodiy ahamiyati	Muhim valyuta tushumi manbai	Hali to'liq shakllanmagan

Manba: Türkiye Cumhuriyeti Yükseköğretim Kurulu (YÖK), OECD Education at a Glance 2025, UNESCO Institute for Statistics

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, Turkiya ta'lim turizmini rivojlantirishda tizimli va kompleks yondashuvni shakllantirishga erishgan. Mamlakatda xorijiy talabalarni jalb qilish faqat universitetlar tashabbusi bilan emas, balki davlatning tashqi siyosati, iqtisodiy strategiyasi va xalqaro imij siyosati bilan integratsiyalashgan holda amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, "Türkiye Scholarships", "Study in Türkiye" hamda Erasmus va Mevlana kabi akademik almashinuv dasturlari Turkiyaning xalqaro ta'lim bozorida pozitsiyasini mustahkamlab bermoqda.

O'zbekistonda esa oliy ta'lim tizimida sezilarli islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ta'lim turizmini mustaqil iqtisodiy yo'nalish sifatida rivojlantirish mexanizmlari hali to'liq shakllanmagan. Xususan, xalqaro marketing, xorijiy talabalar uchun servis xizmatlari, ingliz

tilidagi dasturlar ulushi hamda xalqaro reytinglardagi universitetlar soni bo'yicha hali qator muammolar mavjud. Shu bilan birga, mamlakatning Markaziy Osiyodagi strategik geografik joylashuvi, nisbatan arzon ta'lim xarajatlari hamda yoshlar ulushining yuqoriligi O'zbekiston uchun katta imkoniyat yaratmoqda.

Mazkur tahlillar asosida aytish mumkinki, O'zbekiston Turkiya tajribasidan foydalanish orqali ta'lim turizmini xizmatlar eksportining yangi drayveriga aylantirishi, mintaqaviy ta'lim markazi sifatidagi mavqeini mustahkamlashi hamda xalqaro akademik mobillikni sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Turkiyaning ta'lim turizmi tizimi so'nggi yillarda jadal rivojlanayotgan bo'lsa-da, ushbu yo'nalishning barqarorligini ta'minlash va global raqobatbardoshligini oshirish uchun uning ichki va tashqi omillarini kompleks baholash muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, SWOT tahlil Turkiyaning ta'lim turizmidagi ustunliklari, mavjud muammolari, istiqbolli imkoniyatlari hamda potensial xavf-xatarlarini aniqlash imkonini beradi.

3-jadval

Turkiya ta'lim turizmi tizimining SWOT tahlili

Kuchli jihatlar	Zaif jihatlar
Strategik geografik joylashuv (Yevropa va Osiyo chorrahasi)	Ayrim universitetlarda ta'lim sifati o'rtasidagi tafovut
"Türkiye Scholarships" kabi kuchli davlat stipendiya dasturlari	Ingliz tilidagi dasturlar ayrim OTMlarda yetarli emas
Xalqaro talabalar uchun nisbatan arzon kontrakt va yashash xarajatlari	Xalqaro reytinglarda barcha universitetlarning yuqori o'rin egallamaganligi
Madaniy va diniy yaqinlik tufayli musulmon davlatlari uchun jozibadorlik	Byurokratik jarayonlarning ayrim hollarda murakkabligi
QS va THE reytinglarida o'rin olgan universitetlarning mavjudligi	Talabalar uchun integratsion xizmatlar sifati barcha hududlarda bir xil emas
"Study in Türkiye" global marketing platformasining faol ishlashi	Siyosiy va iqtisodiy beqarorlik haqidagi tashqi stereotiplar
Akademik mobillik dasturlarining rivojlanganligi (Erasmus+, Mevlana)	Ayrim hududlarda turar joy infratuzilmasining yetishmasligi
Zamonaviy kampuslar va xalqaro talabalar ofislari mavjudligi	Xalqaro professor-o'qituvchilar ulushining nisbatan pastligi
Imkoniyatlar	Xavf-xatarlar
Markaziy Osiyo, Afrika va Yaqin Sharq davlatlaridan talabalar oqimini oshirish imkoniyati	Global ta'lim bozorida raqobatning kuchayishi
AQSH va Yevropadagi migratsion cheklovlar fonida yangi talabalar oqimini jalb qilish	Xalqaro siyosiy keskinlik va geosiyosiy risklar
Raqamli ta'lim va gibrid dasturlarni rivojlantirish	Valyuta kurslarining beqarorligi
Ta'lim eksportidan valyuta tushumlarini oshirish	Brain drain (iqtidorli yoshlarning boshqa davlatlarga ketishi)
Turizm va ta'lim integratsiyasi orqali "edu-tourism" paketlarini kengaytirish	Global iqtisodiy inqirozlar natijasida talabalar oqimining qisqarishi
Turkiy davlatlar bilan akademik integratsiyani kuchaytirish	Pandemiya kabi favqulodda holatlarning xalqaro mobillikka ta'siri
Xalqaro ilmiy markaz va mintaqaviy "education hub"ga aylanish imkoniyati	Xalqaro reytinglarda pozitsiyalar pasayishi ehtimoli

Turkiyaning ta'lim turizmi tizimi kuchli institutsional va marketing asoslariga ega. Ayniqsa, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan stipendiya dasturlari, xalqaro marketing siyosati hamda geografik va madaniy ustunliklar mamlakatning global ta'lim bozorida raqobatbardoshligini oshirmoqda. Shu bilan birga, ayrim universitetlar o'rtasidagi sifat

tafovutlari, ingliz tilidagi dasturlar ulushining yetarli emasligi hamda xalqaro reytinglardagi pozitsiyalarni yanada mustahkamlash zarurati mavjud.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Turkiya ayniqsa Markaziy Osiyo va musulmon davlatlari bozorida katta strategik ustunlikka ega. Chunki ushbu hududlardan kelayotgan talabalar uchun diniy-madaniy yaqinlik, yashash xarajatlarining nisbatan arzonligi va xavfsiz muhit muhim determinant sifatida namoyon bo'lmoqda. Bundan tashqari, AQSH va Yevropa davlatlaridagi migratsion siyosatning qat'iyilashuvi ham Turkiya uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Mazkur SWOT tahlil O'zbekiston uchun ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki O'zbekiston Turkiya tajribasidan foydalanib, xalqaro stipendiya dasturlarini kengaytirish, yagona xalqaro ta'lim marketing platformasini yaratish, ingliz tilidagi dasturlar sonini oshirish hamda ta'lim va turizm integratsiyasiga asoslangan "edu-tourism" modelini shakllantirish orqali mintaqaviy ta'lim markaziga aylanish imkoniyatiga ega.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda ta'lim turizmi jahon iqtisodiyotining istiqbolli va yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Xalqaro talabalar oqimini jalb qilish nafaqat ta'lim xizmatlari eksportini oshirish, balki mamlakatning innovatsion salohiyatini kuchaytirish, ilmiy muhitni rivojlantirish va xalqaro imijini mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan Turkiya tajribasi ta'lim turizmini davlat siyosati darajasida strategik rivojlantirishning samarali modelini namoyon etadi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, Turkiya ta'lim turizmini rivojlantirishda kompleks yondashuvni shakllantirishga erishgan. Xususan, "Türkiye Scholarships" davlat stipendiya dasturi, "Study in Türkiye" xalqaro marketing platformasi, ingliz tilidagi ta'lim dasturlarining kengayishi hamda universitetlarning global reytinglardagi faol ishtiroki xorijiy talabalar oqimini keskin oshirishga xizmat qilgan. Natijada mamlakat qisqa vaqt ichida xalqaro talabalarni qabul qiluvchi dunyoning yetakchi davlatlaridan biriga aylandi.

O'zbekistonda ham oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro universitetlar filiallarini ochish, akademik mobillikni rivojlantirish va xorijiy talabalarni jalb qilish bo'yicha sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq tadqiqot natijalari mamlakatda ta'lim turizmini rivojlantirish bo'yicha hali qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Jumladan, xalqaro marketing mexanizmlarining sustligi, ingliz tilidagi ta'lim dasturlarining cheklanganligi, xalqaro reytinglardagi universitetlar sonining kamligi hamda xorijiy talabalar uchun servis xizmatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi ushbu yo'nalishning asosiy muammolari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- O'zbekistonda "Study in Uzbekistan" yagona xalqaro ta'lim marketing platformasini yaratish va uni global miqyosda faol targ'ib qilish;
- xorijiy talabalar uchun davlat stipendiya dasturlarini kengaytirish hamda Markaziy Osiyo, Janubiy Osiyo va musulmon davlatlari bozoriga yo'naltirilgan maxsus grant dasturlarini ishlab chiqish;
- oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilidagi bakalavriat va magistratura dasturlari sonini keskin oshirish;
- xalqaro talabalar uchun "student support center" va "international office" tizimlarini barcha yirik universitetlarda joriy etish;
- ta'lim va turizm integratsiyasiga asoslangan "edu-tourism" modelini shakllantirish, ya'ni xorijiy talabalar uchun tarixiy-madaniy sayohatlar, yozgi maktablar va akademik tur paketlarini rivojlantirish;
- universitetlarning QS va THE kabi xalqaro reytinglardagi pozitsiyasini yaxshilash bo'yicha maxsus davlat dasturlarini amalga oshirish;

- Turkiya tajribasi asosida akademik mobillik va xalqaro almashinuv dasturlarini kengaytirish;
- xorijiy talabalar uchun vizaviy va migratsion jarayonlarni soddalashtirish hamda raqamlashtirish.

Umuman olganda, O'zbekiston o'zining geografik joylashuvi, yoshlar salohiyati, tarixiy-madaniy merosi va mintaqadagi strategik o'rnidan samarali foydalanish orqali Markaziy Osiyodagi yirik ta'lim markazlaridan biriga aylanish imkoniyatiga ega. Bunda Turkiyaning ta'lim turizmini rivojlantirish tajribasi mamlakat uchun muhim metodologik va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/ Лумепамыпа/ Reference:

Aydın, O. T. (2021). *Why do international students choose Turkish universities and what are the challenges they encounter? Issues in Educational Research*, 31(1), 274–290. <http://www.iier.org.au/iier31/tamtekin-aydin.pdf>.

Binbaşoğlu, H. (2019). *Turkish tourism and hospitality students' international posture. Tourism and Hospitality Management*, 25(1), 19–36.

Kırlar-Can, B. (2021). *Understanding the philosophy of tourism education: A perspective study in Turkey. Journal of Travel Research*, 60(8), 1723–1738. <https://doi.org/10.1002/jtr.2472>.

Özdemir, A. S., Orhan, B. E., Karaçam, A., Malka, A., Buhociu, D. H., & Iconomescu, T. M. (2023). *Tourist nomads, leisure constraints, and social cohesion: A study on international students living in Istanbul. Sustainability*, 15(9), 7533. <https://doi.org/10.3390/su15097533>.

Ayupov, R.X. (2020). *Raqamli iqtisodiyot va elektron tijorat asoslari. Toshkent: Iqtisod-Moliya*, 452 b.

Abduraxmonov, Q.P. (2021). *Inson kapitali va iqtisodiy taraqqiyot. Toshkent: Fan va texnologiya*, 386 b.

G'ulomov, S. S. (2022). *Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish masalalari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti*, 318 b.